



ISLOHOTLAR ASOSIDA YOSHLARNING FAOL FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA BARKAMOL SHAXS QILIB TARBIYALASH

J.S. Umarov

"Yosh chegarachilar" HAL

Tarbiya fani o'qituvchisi f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tufayli yoshlарimizda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularni har tomonlama fidoyi, Vataniga foyda keltiradigan, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni bajarishga layoqatli aqlan terang barkamol shaxs qilib tarbiyalash haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Vatan, mamlakat, jamiyat, islohot, yoshlар, ijtimoiy qatlам, faol, fuqarolik, pozitsiya, taraqqiyot, daxldorlik, barkamol shaxs, modernizatsiya, demokratiya, milliy, ma'naviy xazina, umumbashariy madaniyat

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning asosiy maqsadlaridan biri - har tomonlama yetuk bo'lgan, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining manfaatlari uchun kurashuvchi, o'z yurtiga, Vataniga sidqidildan xizmat qiluvchi, bir so'z bilan aytganda, ajdodlarimiz orzu qilgan komil inson fazilatlarini o'zida mujassam etgan yoshlarni tarbiyalashdir. Zotan, komillik qirralarini o'zida mujassam etgan inson o'zining qaysi xalq vakili ekanligini, ulug' avlod-ajdodlari kimligini yaxshi anglashga, ularning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini, qolaversa, o'z ota-bobolari, ajdodlari shajarasi, nasl-nasabini bilishga intiladi.[2,-B. 6480-6487] Shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatning real imkoniyatlariga ham bog'liq. [3,-B. 197-202] Chunki insonning o'zi muayyan ijtimoiy muxitning maxsulidir. Inson uni kurshab olgan kishilarning bevosita ta'sirida yashaydi, ta'lim-tarbiya oladi, voyaga yetadi va shaxs sifatida shakllanadi. [4,-B. 35-42]

Agar jamiyatning bu ma'naviy-ruxiy ta'siri xosiyatli bulsa va inson uning axloqiy talablarini uzi uchun begona deb bilmasa, uning ma'naviy yuksalishi tezlashadi.

Jamiyat hayotining demokratlashuvi hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari aholining eng katta ijtimoiy qatlamini tashkil etayotgan bir paytda yoshlар tarbiyasining ijtimoiylashishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat siyosiy hayotining modernizatsiyalishi keng qamrovli jarayon bo'lib, bu sohada shakllangan an'anaviy yondashuvlarni jamiyatdagi sohalarga mos tarzda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jihatlarga bo'lib o'rganish mumkin. Bugungi kunda jamiyatni erkinlashtirish, uni ma'naviy jihatdan yanada yaxshilash bevosita yosh avlod ongida axloqqa asoslangan demokratik qadriyatlarni mustahkamlash orqali ta'minlanadi. Bu esa o'z o'rnida erkin, har tomonlama barkamol, yuksak mas'uliyat va burch hissiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar turkumini ishlab chiqishni zaruratga aylantirmoqda.



ASOSIY QISM

Zero, har tomonlama rivojlangan Davlatda barkamol avlodni shakllantirish g'oyasi insonning ham milliy, ma'naviy xazina, ham umumbashariy madaniyatni egallashga, ma'naviy - axloqiy va jismonan kamol topishga bo'lgan yangilanishlarni ifodalarydi. Demak bugungi kunda yoshlarning "axloqiy, estetik idealini uyg'unlashtirish, uning ichki tizimini yangicha talqin qilish, zamonaviy fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirish dolzARB umumnazariy masala va bugungi kunning ob'ektiv zaruratdir". [5,-B. 5]

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi huquqiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni demokratlashtirish jarayonini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat bo'lib, mamlakat uchun zamonaviy hodisa sifatida uning ijtimoiy tuzilishini takomillashtirish imkonini beradi. [6,-B. 417-421] Binobarin, fuqarolik jamiyatini shakllantirish turli ijtimoiy guruhlar tashabbusiga asoslanishi va amalga oshirilishi muhim. Chunki demokratik jarayonlarning rivojlanishi ayni shu sohadagi amalga oshiriladigan islohotlar bilan ham chambarchas bog'liq. [7,-B. 59]

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tufayli yoshlарimizda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanayotgani, ularni vatan taraqqiyotiga daxldorlik hissi ortayotgani milliy g'oyaning ravnaq topishida asosiy omil bo'lmoqda. Mamlakatimiz olimlari va boshqa ekspertlar jamoasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar hamda ijtimoiy so'rovlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlарimizda o'z konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini to'liq anglagan holda, keng ko'lamli islohotlarda munosib ishtirok etish kayfiyati tobora kuchayib bormoqda. Shu boisdan ham Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Siyosiy yetuk, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yuzlab yigit-qizlar parlamentimiz va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining a'zosi sifatida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat idoralarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda" [1,-B. 440] deb ta'kidlaydi. Bu esa hozirda jamiyatimizda yoshlар faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorligini yuksaltirish fenomenining nazariy-ilmiy asoslarini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni qanchalik darajada muhim sifatlardan biri ekanligini belgilaydi.

Fuqarolik - bu har bir shaxsning davlatga huquqiy yoki siyosiy mansubligidir. [8,-B.82-84] Shu bilan birga, fuqaro o'z harakatlariga va davlatdagi mavqeiga nisbatan huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga majburdir.

Fuqarolik - Konstitutsiyada belgilangan moddalar va qoidalarning amalga oshirilishi - shaxsning huquqlari va uning davlat hokimiysi bilan bog'liq pozitsiyasi to'g'risidagi qonunlar majmuini anglatadi. [9,-B.1360-1363] Fuqarolik pozitsiyasi - bu o'z qonuniy huquq va manfaatlarini barcha qonuniy usullar bilan himoya qilishga intilish va bundan tashqari, boshqa odamlarning huquq va manfaatlariga rioya qilishga befarq bo'lmaslikdir.



Fuqarolik pozitsiyasi shaxsning fuqarolik fazilatlarini ifodalaydi, bunda shaxs o'zini ijtimoiy munosabatlarning to'la huquqli suveren sub'ekti sifatida belgilaydi, demokratik jamiyatdagi o'rnnini, shuningdek, uning hayotiy maqsadlari va ularga erishish yo'llarini belgilaydi. Va shu bilan birga lavozim - shaxsning nuqtai nazari, uning biror narsaga munosabati va shu munosabat bilan yuzaga kelgan xattiharakatlar va shakllangan shaxsiy jarayondir. [10,-B. 445-449] Fuqarolik pozitsiyasi - bu insonni umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni oqilona qabul qilishi, bu insoniy munosabatlarning insonparvarligi, bu insonning boshqa odamlar bilan muloqotida namoyon bo'ladigan qadr-qimmatning namoyon bo'lish jarayonidir. Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorligini oshirishning ilk ko'rinishlari Qadimgi Sharqda vujudga kelgan bo'lib u asosan Shumer, Bobil, Qadimgi Misr, Qadimgi Turon-Eron va Qadimgi Hindistondagi diniy-falsafiy qarashlar bilan o'zaro uyg'unlikka ega bo'lgan. Mazkur hududlar tarixi, madaniyatini yoritib beruvchi manbalarda yoshlardan faoliyi va madaniyatining dastlabki namunalari mifologik va diniy g'oyalalar bilan uyg'un holda ochib berilgan.

Fuqarolik pozitsiyasi amerikalik axloqshunos va siyosiy faylasuf Jon Rouls tomonidan yaratilgan o'ziga xos ilmiy faraz ekanligi haqida dalillar mavjud. Bu tushuncha Rolsning adolat nazariyasida markaziy o'rinni egallagan va xatto XX asr falsafasidagi eng ta'sir doirasi katta bo'lgan g'oyalardan biri hisoblanadi. Chunki u keyinchalik ham falsafiy jihatdan xilma-xil qarashlarni ilgari surgan mutafakkirlar qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Fuqarolik pozitsiyasi asl pozitsiya mahsuli bo'lib u ijtimoiy erkinlik va fuqarolar o'rtasidagi adolatli hamkorlikka erishish mumkinligini aniq aks ettirish uchun ishlataladi. Shu boisdan ham F.Nabiev. "Odamlarda fuqarolik ma'naviyati, daxldorlik fazilati shakllangan taqdirdagina fuqarolik jamiyatini qurish mumkin bo'ladi. Zero, bir fuqaro boshqa bir fuqaroga uning taqdiriga nisbatan befarq bo'lsa, har qanday yaxshi qonunlar ham ishlatmaydi" [11,-B. 69] deb ta'kidlaydi.

Nazariy jihatdan muayyan jamiyatda boshqarishning demokratiyalashuvi, boshqaruv tizimining modernizatsiyalashuvi inson manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy muhit yaratilishini taqazo etadi. Vaholanki, erkinlikni farqlay oladigan inson tafakkurini shakllantirmasdan hamda jamiyatda ijtimoiy muhitni rivojlantirmasdan turib yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalab bo'lmaydi. Shu ma'noda, ijtimoiy taraqqiyotda erkinlikka nisbatan ustuvor munosabatning barqarorligini umuminsoniy axloqiy mezonlar doirasida tadqiq etish orqali ma'naviy jarayonni yuksaltirishga erishish mumkin. "Biroq, har qanday davrda, har bir davlatda erkinlik ham mavjud huquqiy qonunlar, umuminsoniy axloqiy normalar doirasidan chiqsa, o'z mazmunining antipodiga aylanadi, jamiyatni boshqarishda anarxiyaga olib keladi". [12,-B.48]

XULOSA

Fuqarolik pozitsiyasi deganda yoshlarning o'z siyosiy, ijtimoiy huquqlarini anglagan holda faol harakat qilishi tushuniladi. Yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ularni har tomonlama fidoyi, jamiyatga foyda keltiradigan, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni bajarishga layoqatli barkamol shaxs qilib tarbiyalash ham nazarda



tutiladi. Shu boisdan ham yoshlarga doir davlat siyosatining asosini yoshlar hamda davlatning o'zaro ratsional munosabatlari tashkil etadi. Uning mohiyati o'zaro aloqador bo'lgan burch va mas'uliyatlarni anglash bilan xarakterlanadi. Darhaqiqat, "Yoshlar siyosati - bu davlatning demokratik taraqqiyot yo'lidan rivojlanishida yoshlarni muhim strategik kuch sifatida tan olishi, zamonaviy dunyoda yoshlarning ehtiyojlari, ularning mavjud demokratik muhitga to'g'ri moslashuviga yo'naltirilgan qonunchilik va ijro etish xususiyatining yig'indisi hamda o'zining yoshlarga nisbatan boshqaruv va ijtimoiy funksiyalarini demokratik siyosiy tizim, xalqaro yoxud milliy huquq normalari talabi darajasida to'liq bajarishidir". [13,-B.20] Shuning bilan bir qatorda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish yoshlarning yuksak darajadagi ijtimoiy-axloqiy madaniyati ko'rsatkichi sifatida tarkib topadi.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Т.: Ўзбекистон, 4-жилд, 2020. 440-бет.
2. Kadirova Yaqitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF LEGAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF A SUBJECT-ETHICAL APPROACH. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>
3. Kadirova Ya. B. YOSHLARDA FUKAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI VATANPARVARLIK VA BAYNALMINALLIK TUYG 'ULARINI, RIVOJLANTIRISH//JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February) Б.197-202
4. BUVABAEVNA K. Y. LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA: LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA //Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1 Pp.35-42
5. Самадов А. Шахс эстетик идеалининг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд: 2020. –Б.5.
6. Y Kadirova, K Kadirova SOCIAL ACTIVITY OF PEDAGOGUE IN SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY//Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. В3. – Pp. 417-421
7. Кадирова Х. Б. ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.- – 2016. – С. 59.
8. Кадирова Х. Б. Миллий идентикликни таназзулига мультимаданий таъсир муаммолари //Учёный XXI века. – С. 82 (Kadirova X. B. Problems of multimedanic influence on the degradation of national identity //uchioniy XXI veka. – P. 82).



9. Y Kadirova, S Komilova. THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON HUMAN CONSCIOUSNESS// Science and Innovation.2022 – Т. 1. – №. B8.- Pp.1360-1363
10. Ya Kadirova, Sh Komilova. THE ROLE OF THE PROBLEMS OF THE MEDIA FIELD IN GLOBALIZATION PERIOD//Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B1. – 445-449
11. Набиев Ф. Фуқаролик жамияти шароитида мафкуравий иммунитетни кучайтиришда маънавиятнинг ўрни. Глобаллашув. Оммавий маданият, миллий ғоя. /Илмий-амалий мақолалар тўплами. Т.: “Маънавият”, 2009. – 69-б.
12. Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қуришнинг ғоявий-мафкуравий масалалари. – Т.: Маънавият, 2007. –Б. 48.
13. Агабаев Ш.К. Глобаллашув жараёнида ёшлар сиёсий толерантлиги жамият барқарорлигининг муҳим омили сифатида. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. –Тошкент, 2020. –Б.20.
14. “Tarbiya fani: yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami TDPU.Toshkent:2021- 342
15. Кадирова Х. Б. Нравственное воспитание //ФЭн-наука. – 2015. – №. 5. – С. 41-42.